XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHI

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2023 - yil 30 - may VI-55-59-8-116-K/23 Sariosiyo tuman hokimligi

Sariosiyo tumani mahalliy budjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi va ushbu tartibga muvofiq:

Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari quyidagilardan:

- tuman budjetining har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘laridan;

- tuman budjeti daromadlarining birinchi - uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan daromadlarni prognozdan oshirib bajarilishidan;

- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tuman budjetiga tushgan mablag‘lardan;

- davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tuman budjetiga tushgan tushumlardan;

- O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq tuman budjetidan ajratiladigan mablag‘larni kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lardan tashkil topishi belgilanganligi rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining

qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari 877,0 mln. so‘mni tashkil etganligi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman budjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan 877,0 mln. so‘mni ajratilgan mablag‘lar (jami shakllangan mablag‘ning 100,0 foizi) tuman hokimligi va mutasaddi tashkilotlarning takliflari asosida 1-ilovaga muvofiq xarajatlarga yo‘naltirilishiga rozilik berilsin.

5. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari:

- favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi;

- tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi;

- tuman mahalliy budjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi;

- tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Asadov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **A.H.Donayev**

Xalq deputatlari Sariosiyo tuman
Kengashining
2023 yil 30 maydagi
VI-55-59-8-116-K/23-son qaroriga
1-ilova

Sariosiyo tumani mahalliy budjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

T/r	Mablag‘ yo‘naltirilgan tashkilot nomi	Ajratiladigan mablag‘ maqsadi	Mln. so‘m hisobida	Foiz hisobida
		Jami shakllangan manba	**877,0**	**100,0%**
		shundan:		
		Jami ajratiladigan mablag‘:	**877,0**	**100,0%**

1	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi “Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Ochiq budjet” (Openbudget.uz) portaliga tushadigan jamoatchilik fikrini inobatga olib sarflash sharti bilan, Sariosiyo tuman hokimligida tashkil etilgan tashabbus jamg‘armasi maxsus hisob raqamiga 30%	264,0	***30,0%***
		Tumandagi “Ayollar daftari”ga kiritilgan ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga tuman mahalliy budjetining daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan maxsus hisob raqamiga o‘tkazish uchun 15%	131,0	***15,0%***
		Tumandagi “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga tuman mahalliy budjetining daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan maxsus hisob raqamiga o‘tkazish uchun 15%	131,0	***15,0%***
		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi 459-son qaroriga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ipoteka kreditlari bo‘yicha qarzdorliklarini so‘ndirish jamg‘armasiga 5%	46,0	***5,0%***
		Tuman hokimligi xodimlarini qo‘shimcha rag'batlantirish xarajatlari uchun	47,000	***5,0%***
		Tuman hokimi o‘rinbosari D.Toshmatovaga 2-oylik ish haqi miqdorida rag‘batlantirish xarajatlari uchun	8,500	***1,0%***
		Tuman hokimligi ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassisi S.Sheraliyevni xalq deputatlari tuman Kengashi qaroriga asosan bir oylik ish haqi miqdorida rag‘batlantirish xarajatlari uchun	3,113	***0,4%***
		Referendumga qo‘shimcha mirzalik (kanselyariya) mollari olish uchun	10,584	***1,0%***
		Tumandagi 55-son, 68-son umumta’lim maktablari, Sharg‘un shahar madaniyat bo‘limi, Sariosiyo tuman madaniyat bo‘limi va Denov pedagogika instituti Sariosiyo filiali, jami 5 ta namunali tadbir obyektlarida IP setovoy kameralari o‘rnatish xarajatlari uchun	24,000	***3,0%***
		Tumandagi 3-son umumta’lim maktabida 12-kun davomida o‘tkazilgan tadbirga 80 nafar ishtirokchilarga o‘qitish, tushlik va boshqa xarajatlari uchun	7,080	***1,0%***
		Tumanda referendumga aks ettirilgan Bannerlar yasash va o‘rnatish xarajatlari uchun	32,500	***4,0%***
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi PQ-427-son qaroriga asosan, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimida bolalar sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasiga	55,600	***6,3%***
		Referendumga 15 dona telefon apparati, mirzalik (kanselyariya) mollari va jihozlar xarajatlari uchun	16,900	***2,0%***
		Referendumga 46 dona bayroqlar olish xarajatlari uchun	2,990	***0,3%***
		Tuman hokimligi majlislar zali va xonalariga 50 ta led lampalar olish xarajatlari uchun	3,750	***0,4%***
		Tuman hokimligining internet xarajatlari uchun “Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat unitar korxonasiga	30,000	***3,0%***
		Tuman hokimligining Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimi E-Qaror xarajatlari uchun	21,000	***2,0%***
		Tuman hokimligining Qo‘riqlash xizmati xarajatlari uchun	11,983	***1,3%***
		Sariosiyo tumanlararo Iqtisodiy sudining 2021-yil 29-martdagi 4-1903-2101/48-sonli ijro varaqasiga asosan, tumanda joylashgan ko‘p qavatli uylar tomini yopish uchun tunuka va qurilish materiallari xarajatlaridan yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun	30,000	***3,0 %***